UO‘K 94:007(575.1)

1991–2005-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINING RIVOJLANISH TARIXI

I.S. Yusupov

Maqolada 1991–2005-yillarda O‘zbekistonda telekommunikatsiya tarmog‘i rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari o‘rganilgan. Magistral raqamli transport tarmog‘ini tashkil etish, raqamlashtirish darajasini oshirish, mahalliy telefon tarmog‘ini rivojlantirish hamda xizmatlarning yangi turlarini joriy etish borasida tizimda olib borilgan islohotlar tarixi yoritilgan. Yaponiya, Janubiy Koreya va Turkiya davlatlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbektelekom, telefon, telegraf, “Intelsat”, mahalliy telekom, Uztelekom.*

В статье рассматриваются основные направления развития сети телекоммуникаций Узбекистана в 1991–2005 гг. Освещается история проводимых в системе реформ по созданию магистральной цифровой транспортной сети, повышению уровня цифровизации, развитию местной телефонной сети и внедрению новых видов услуг. Проанализирована работа, проделанная в сотрудничестве с Японией, Южной Кореей и Турцией.

Ключевые слова: *Узбектелеком, телефон, телеграф, местный телеком, Узтелеком.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida dunyo xalqlarining hayotida aloqa vositalarining texnik jihatdan takomillashuvi va kengayishi ijtimoiy taraqqiyotning kuchli omiliga aylandi. Zamonaviy jamiyat hayotida aloqa vositalari katta rol o‘ynaydi, ularning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim ko‘rsatkichidir.

Bugungi kunga kelib aloqa vositalari inson faoliyatining barcha sohalariga kirib bordi. Bu holat rivojlangan davlatlarda aloqa vositalari va tarmoqlarining yangi xillarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘zaro raqobatni yuzaga keltirdi. Aloqa tizimining tez rivojlanishi va yangi turlarining ixtiro qilinishi jahonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, jahonda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi kommunikativ aloqa vositalarini yangi bosqichga olib chiqishda asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda aloqa tizimida tub o‘zgarishlar yuz berishi barobarida sohaga doir yangi infratuzilmalar yaratildi. O‘tgan vaqt mobaynida telekommunikatsiya vositalarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyos oshdi. Ko‘p sonli aloqa kanallari ko‘rinmas va ulkan tarmoq kabi respublikamiz hududini qamrab oldi. Bunday yangilanishlar aloqa tizimining rivojlanish jarayonida va aholining ijtimoiy-madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish sharoitida telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Mamlakatimizda ushbu tizimda olib borilayotgan faoliyat, telekommunikatsiyaning moddiy-texnik holati, kadrlarni tayyorlash bilan bog‘liq muammolar tizimli ravishda o‘rganilmagan. Bu hol telekommunikatsiya sohasining rivojlanish jarayonini va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini alohida o‘rganishni taqozo etmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda telekommunikatsiya tizimining taraqqiyoti tarixiga oid umumiy ma’lumotlar L.N.Jo‘rayev, G‘.R.Mamatqulov, R.F.Xudoyberdiyev, B.I.Axtamov, I.S.Yusupov, R.Z.Kamolitdinov, N.X.Gulto‘rayeva, N.S.Xo‘jayev, A.D.Normurodov, R.I.Isayev, R.K.Atametov, R.N.Rajapova tadqiqotlarida berilgan. Shuningdek, bir qator gazeta, jurnal va veb-saytlarda ham telekommunikatsiya sohasining rivojlanish yo‘nalishlariga oid maqolalar berib borilgan.

Istiqlolga erishgunimizga qadar O‘zbekistondagi magistral va zonachi telekommunikatsiya transport tarmoqlari to‘liq mis kabellar va havo aloqa liniyalaridan tashkil topgandi. Sha-

harlararo telefon stansiyalari dekada-odimlovchi, koordinatali va yarim elektron qurilmalardan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston bo‘yicha yagona 2267 kanalli AXE-10 turiga mansub elektron SHATS (shaharlararo ATS) faqatgina poytaxt Toshkent shahrida ishlagan. Respublikaning xalqaro aloqasi avtomatik aloqa imkoniyatlari va kanallari soni cheklangan bo‘lib, Moskva xalqaro stansiyasi orqali o‘tgan.

Yo‘ldoshli aloqa 1980-yil foydalanishga topshirilgan va “Azimut” yo‘ldoshli aloqa stansiyasi orqali amalga oshirilgan. Ushbu stansiya orqali Moskvadan 2 ta teleuzatish dasturi, 10 ta radioeshittirish dasturi va 90 ta telefon kanali qabul qilingan. Mahalliy telefon tarmoqlarida ma’nan va jismonan eskirgan koordinatali, dekada-odimlovchi analog stansiyalar ishlatib kelingan. Telefon stansiyalari umumiy montaj sig‘imi 1,5 mln. raqamga mo‘ljallangan bo‘lib, har 100 kishiga shaharlarda 14 ta, qishloqlarda 2,1 ta telefon to‘g‘ri kelgan [1. B. 2].

Mustaqillikka erishilgandan keyin mamlakatimizda telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Xalqaro tarmoqlarga mustaqil chiqishni ta’minlash, respublika magistral raqamli transport tarmog‘ini tashkil etish, shaharlararo stansiyalarni raqamlashtirish va xalqaro kommutatsiya markazlarini tashkil etish, raqamlashtirish darajasini oshirish va mahalliy telefon tarmog‘ini rivojlantirish, Telekommunikatsiya xizmatlarining yangi turlarini joriy etish borasida qator ishlar amalga oshirildi.

“Telekommunikatsiya” so‘zi masofadan turib muloqot qilishni anglatadi va bunday muloqotning turli usullarini amalga oshiruvchi texnologiyalar yig‘indisini ko‘zda tutadi [2. B. 5].

Yurtimizda telekommunikatsiya tarmog‘iga quyidagi tizimlar kiradi, telefon, telegraf, faksimil aloqalar, ma’lumotlarni uzatish, televideniye dasturlarini tarqatish. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan mustaqil aloqa tizimini barpo etish uchun “Intelsat” tizimi xalqaro yo‘ldoshli aloqa stansiyasini hamda 810 kanalli NEAX-61 xalqaro kommutatsiya stansiyasini qurishga moliyaviy yordam ajratildi. Dastlab Yaponiyaga 20 ta kanal tashkil qilindi.

1992-yil Turkiya hukumati sovg‘a qilgan IBS turiga mansub yo‘ldoshli aloqa stansiyasi orqali Turkiyaga 30 ta yo‘ldoshli kanal ishga tushirildi. Nihoyat, O‘zbekiston uchun xalqaro telekommunikatsiya tarmoqlariga mustaqil chiqish yo‘llari ochilib, respublikamiz aloqa sohasidagi mustaqilligini mustahkamlash sari dastlabki qadamlar tashlandi. “O‘zbektelekom” davlat konseneri 1992-yil bahorida BMTning keyinchalik mazkur tashkilot qoshidagi Xalqaro Telekommunikatsiya ittifoqiga a’zo bo‘ldi.

1992-yilning o‘rtalarigacha Aloqa vazirligida raqamli telefon texnologiyasini o‘rnatish texnologiyasi bo‘lmagan. Shuning uchun Toshkent xalqaro telefon aloqalari markazi hisoblangan. 1993-yilda xalqaro qo‘ng‘iroqlarning qariyb 90 foizi ushbu tarmoq orqali o‘tgan. O‘sha davrda mamlakatimizdagi umumiy qo‘ng‘iroqlarning atigi 0,03 foizi xalqaro qo‘ng‘iroqlar bo‘lgan.

1994-yilda mamlakatimizda telefon aloqasi 1,46 million abonentga yoki aholining qariyb 7 foiziga xizmat ko‘rsatgan. Ulardan 1,12 millioni shahar aholisi, 340000 nafari qishloq aholisi bo‘lgan. Ularning 1,08 millioni turar-joy mijozlari, 380 mingi esa tadbirkorlik subyektlari bo‘lgandi. Telefonni o‘rnatish uchun kutayotganlar soni 360000 kishini tashkil qilgan. O‘rtacha kutish vaqti uch yildan besh yilgacha bo‘lgandi. Shu yilda mavjud bo‘lgan telefon liniyalari ehtiyot qismlarining barchasi sobiq Sovet Ittifoqi yoki Sharqiy Yevropada ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘z umrini o‘tab bo‘lgandi. Bunday holatlar mijozlarning haqli noroziligini keltirib chiqargan [3. B. 444–445].

Toshkent shahri telekommunikatsiya tarmog‘ini zamonaviylashtirish va kengaytirish maqsadida “Alcatel SEL AG” kompaniyasi bilan tuzilgan shartnoma asosida (Germaniyaning “KfV” banki krediti hisobidan moliyalashtirilgan) 1994-yilda “Toshkent shahri telekommunikatsiya tarmog‘ini zamonaviylashtirish” loyihasi amalga oshirildi. Umumiy sig‘imi 23400 raqamga teng analog qurilmalar almashtirilib, 61208 raqamgacha kengaytirildi. 1995-yil 29-aprelda yurtimizda “UZ” domeniga asos solindi. 1996-yil O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida BMTning O‘zbekistonda internetni rivojlantirish loyihasi tashkil etildi. Keyinchalik bu UzNET nomi bilan tanilgan. Telekommunikatsiya bozorida UzPAK kompaniyasi faoliyatini boshladi [4. B. 2].

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston telekommunikatsiya tarmog‘ini 2010-yilgacha bo‘lgan davrda rekonstruksiya qilish va rivojlantirish dasturi

to‘g‘risida”gi 307-sonli qarori qabul qilinishi bilan 3 bosqichdan iborat milliy dastur ishlab chiqildi. 1-bosqichda respublika viloyatlari markazlarini optik tolali kabellar orqali ulash hamda markazlarda mavjud eski turdagi kommutatsiya tizimlarini yangi raqamli kommutatsiya tizimlariga almashtirish mo‘ljallangan. 2-bosqichda barcha viloyat markazlarini optik tolali kabellar bilan ulash va tuman markazlariga 1-bosqichda almashtirilmay qolgan raqamli kommutatsiya tizimlarini o‘rnatish ko‘zda tutilgandi. 3-bosqichda respublikaning barcha tumanlari qishloqlarigacha raqamli tizimlarni olib borish rejalashtirilgandi [5. B. 74–75].

Toshkent shahar telekommunikatsiya tarmog‘ini raqamlashtirish bo‘yicha ishlar 1996-yilda boshlanib, 2005-yilda 38 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005–2006-yillar davomida bu ko‘rsatkich 82,5 foizga yetkazildi. Toshkent shahar telefon tarmog‘ining optik telekommunikatsiya transport halqasi Huavey kompaniyasining DWDM va SIM-16 texnologiyalari asosida kengaytirildi [6. B. 26].

1995 yilning boshlarida respublikamizda telefon tarmog‘i moddiy-texnik bazasining dunyodagi rivojlangan mamlakatlardan 20–30 yil orqada qolganligi hamda aloqa vositalari bilan jihozlanmaganligi, ko‘rsatilayotgan aloqa xizmatlari sifatining pastligi, raqamli tarmoq va servis xizmatlarning rivojlanmaganligi, axborot paketini kommutatsiya qilib, ma’lumotlarni zamonaviy yuqori tezlikda uzatish tarmog‘ining yo‘qligi natijasida respublika aholisining telefon bilan ta’minlanganlik darajasi har 100 kishidan 6,7 tani tashkil qilgan, u Xalqaro elektr aloqa uyushmasi qabul qilgan o‘rtacha normativdan bir necha barobar kam bo‘lgan. Rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaganda, xususan, Germaniyada har 100 kishiga 44,8 ta, Fransiyada 52,3 ta, Angliyada, 45,1 ta, Turkiyada 16,2 ta telefon to‘g‘ri kelgandi. O‘sha davrda mamlakatimizda shaharlarda har ikkinchi oila, qishloq joylarida har o‘ninchi oila telefon bilan ta’minlangandi [7. B. 71].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 4-dekabrdagi qarorlari doirasida telekommunikatsiyalar sohasida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni boshlandi. 1995–1996-yillarda davlat korxonalari negizida “Toshkent taksofoni” (Toshkent shahri) va “Sirdaryo Telekom” aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlari davlat elektraloqa korxonalari negizida O‘zbekiston-Indoneziya qo‘shma korxonasi – “O‘zbektelekom Interneyshnl” AJga (bosh idorasi Toshkent shahrida joylashgan) asos solindi. Chirchiq aloqa bog‘lamasi bazasida O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma korxonasi – “Chirkom” tashkil etildi.

1995–2000-yillarda OYESF loyihasi asosida eski analog stansiyalarni yangi raqamli tizimlarga almashtirish va optik tolali kabel o‘rnatish ishlarini bajarish uchun Yaponiya hukumati O‘zbekistonga uzoq muddatga mo‘ljallangan 12,4 mlrd. yenlik kam foizli kredit ajratdi. Kreditning Xorazm viloyatiga tegishli qismi 18,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Jumladan, Urganch shahrida 28 mingdan ziyod abonentga mo‘ljallangan, Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan “DTS-3100” tipidagi raqamli telefon stansiyalari, Urganch tumanidagi 5000 abonentga, Xiva shahrida 10000 abonentga xizmat ko‘rsatish imkoniga ega ushbu tipdagi ATSlar qurib, ishga tushirildi [8. B. 9].

1997-yili “Mahalliy Telekom” (mahalliy aloqa, sanoat, qurilish va ta’minot AJ va QK davlat paketlari boshqaruvi) va “Xalqaro Telekom” (shaharlararo va xalqaro aloqa, mobil aloqa, radio va televideniye AJ, QK davlat paketlari boshqaruvi) aksiyadorlik kompaniyalariga asos solindi. Toshkent shahar telefon aloqasi va radiolashtirish birlashmasi, Toshkent, Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari davlat elektraloqa korxonalari 1997-yili “Toshkent shahar telefon tarmog‘i”, “Toshkent Telekom”, “Andijon Telekom”, “Farg‘ona Telekom” va “Namangan Telekom” aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. “Qoraqalpoq Telekom”, “Xorazm Telekom”, “Navoiy Telekom”, “Buxoro Telekom”, “Shaharlararo aloqa korxonasi”, “Toshkent telegraf-telefon stansiyasi” aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilishi bilan mahalliy, shaharlararo va xalqaro aloqa korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni nihoyasiga yetkazildi.

1997–1998-yillar davomida shaharlararo va xalqaro aloqa korxonalari, telekommunikatsiyaning hududiy operatorlari bazasida telekommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xorijiy kompaniyalar ishtirokida qo‘shma kor-

xonalar tuzish yo‘li bilan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish choralari ko‘rildi. 1998-yilda 13 davlat hududidan o‘tgan Trans Osiyo-Yevropa magistrali qurilishi tugallandi. Magistralning ishga tushirilishi Xitoy, Turkmaniston, Turkiya, Germaniya va Qozog‘iston bilan yuqori tezlikdagi raqamli kanallarni tashkil etish imkonini berdi va boshqa mamlakatlar uchun tranzit yo‘l ochildi.

1999-yilda respublikamizda yana bir yirik loyiha amalga oshdi. Hajmi 12,7 mlrd. yen bo‘lgan yapon fondi OYESF krediti bo‘yicha Orol bo‘yi zonasida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari) 252 ming liniyaga mo‘ljallangan yangi raqamli ATSlar qurildi va yangi tolali-optik kabelda ishlaydigan salkam ikki ming kilometrli hududlararo va shaharlararo aloqa liniyalari qurildi. Yangidan qurilgan va oldindan ishlab turgan telekommunikatsiya tarmog‘i yangi optik tolali aloqa tizimlari magistraliga ulandi. 1999-yilda mamlakatimizda xalqaro telefon almashuv xizmatlarining 90% ga yaqini zamonaviy raqamlar tizimida amalga oshirildi [9. B. 3–4].

Respublikamizda telekommunikatsiya xizmatlarini yirik operator “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (AK) amalga oshiradi. Mazkur kompaniya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 28-iyundagi “Telekommunikatsiya sohasini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 30-iyundagi “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgandi. “O‘zbektelekom”ning telekommunikatsiya tarmoqlari respublikaning barcha hududini egallaydi. Kompaniya xizmatlarini telekommunikatsiya bozorida UZTELEKOM va “Milliy operator” brendi ostida chakana bozorda an’anaviy xizmatlar kompleksi, shuningdek, operatorlar uchun ichki va xalqaro bozorlar uchun barcha turdagi xizmatlarni taqdim eta boshlagan.

UZTELEKOM korporativ sektor uchun telekommunikatsiya xizmatlarini o‘z ichiga olgandi: turg‘un aloqa, simli va simsiz keng polosali ulanish, ma’lumotlar uzatish, VPN (virtual xususiy tarmoqlar), IP-telefoniya, IPTV, virtual ofis ATSlari, videokonferensiya, UZMOBILE savdo belgisi ostida chakana bozor va kichik biznes uchun IP-texnologiyalarga asoslangan yangi avlod telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatilardi. UZONLINE savdo belgisi ostida CDMA-450 standartidagi mobil va statsionar aloqa, GSM standartidagi mobil aloqa va mobil internet xizmatlarini ko‘rsatadi.

Kompaniya tarkibida 14 ta regional, 8 ta maxsus, 3 ta quyi va 22 filial faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya tarmog‘i xalqaro telefon kommutatsiya markazi 4 ta, shaharlararo telefon stansiyalari 13 ta, xalqaro paketli kommutatsiya markazi 1 ta transport telekommunikatsiya tarmog‘i va mahalliy telekommunikatsiya tarmog‘idan tashkil topgandi.

2001-yilga kelib “O‘zbektelekom” AKni xususiylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida “Xorazm Telekom” AJ “O‘zbektelekom” AKning “Xorazm Telekom” filiali maqomiga aylantirilgan. Yaponiya davlatining JBIK loyihasi asosida respublikaning 4 ta shimoliy viloyatlariga simsiz sifatli aloqa “SDMA-450” standarti tashkil qilinib, ishga tushirildi. Bu loyiha bo‘yicha viloyatning 5 ta nuqtasiga “SDMA-450” baza stansiyalari qurilib, antennalar ishga tushirildi. Bu standartning boshqa standartlardan afzalligi shundaki, tuman markazlari va shaharlardan uzoq masofadagi abonentlarga sifatli telefon aloqasi xizmati ko‘rsatish va internetga chiqish imkoniyatini yaratishda uzoq vaqt davomida elektr energiyasi bo‘lmay qolgan taqdirda ham o‘z ichki akkumulyator batareyasidan 12 soat davomida foydalanish imkoniyati bo‘lgan uyofis terminallari bilan ta’minlanadi [10. B. 134].

2003-yilda “Jizzax telekom” filiali bo‘yicha havo aloqa liniyalari – 329 km.ga, shundan tirkagichligi – 329 km., simlar uzunligi – 870 km. ga, bog‘lovchi liniyalar soni – 22 taga, shundan zichlashtirilgani – 6 taga, V 2 kanallar soni – 44 taga, shundan raqamlari – 30 taga, qishloq taksofoni – 2 taga kamaygan. Xuddi shunday holat Xorazm viloyatining Gurlan va Pitnak tumanlarida ham uchraydi [11. B. 127]. Bunday holatlarni respublikamizning barcha hududlarida uchratish mumkin.

Mamlakatimizda 28 yo‘nalish bo‘yicha dunyoning 180 ta mamlakatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro kanallar bilan aloqa qilish imkoniyati yaratilgan. Butun tarmoq ko‘proq axborot o‘tkazish quvvatiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7 mayda “O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tad-

birlari to‘g‘risida”gi 215-son qaroriga asosan agentlikning hududiy boshqarmalari tashkil etildi [12. B. 12].

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning barcha hududlarida eskirgan analog telefon aloqalari zamonaviy raqamli kommutatsiya tizimlari va raqamli avtomatik shaharlararo telefon stansiyalari bilan almashtirildi. O‘zbekiston bo‘ylab radioeshittirish va televideniye inshootlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Qabul qilingan Milliy dasturning amalga oshirilishi O‘zbekistonga ko‘rsatilayotgan telekommunikatsiya xizmatlari hajmini oshirish, zamonaviy aloqa vositalariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, butun tarmoq uchun raqamli uzatish tizimlariga o‘tish imkoniyatini yaratish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish, avtomatlashtirilgan aloqa tizimini yaratish imkonini berdi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Telekommunikatsiya xizmatlarining yangi turlarini joriy etish bo‘yicha Yaponiya, Janubiy Koreya va Turkiya davlatlari bilan hamkorlikda qator ishlar amalga oshirilgan.

1995-yilga kelib mustaqil xalqaro aloqa tizimi barpo etilib, 12 yo‘nalishda – Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Fransiya, Hindiston, Isroil, Italiya, Janubiy Koreya, Singapur, Pokiston kabi davlatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro kanallar tashkil etilgan.

O‘tgan davr mobaynida soha rivoji uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bir qator qaror va farmonlari qabul qilinishi va ijrosi natijasida tizimning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi, aloqa xizmatlari sifatini oshirish, raqamli tarmoq va servis xizmatlarini rivojlantirish, axborot ma’lumotlarini zamonaviy yuqori tezlikda uzatish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan bir qatorda, telekommunikatsiyalar sohasini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni boshlanishi tizimda katta o‘zgarishlar bo‘lishi uchun zamin yaratdi. “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi va viloyatlarda hududiy boshqarmalarning tashkil qilinishi respublikada aloqa sohasining yanada rivojlanishiga turtki berdi. Soha rivojiga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalar olib kirish, malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi.

Telekommunikatsiya jahon iqtisodiyotining eng dinamik va daromadli tarmoqlari qatoriga kiradi. Telefon bilan ta’minlanganlik darajasi har qanday mamlakat aloqasi rivojlanganlik darajasining integral ko‘rsatkichi hisoblanadi.

1995-yilda respublika aholisining telefon bilan ta’minlanganlik darajasi har 100 kishiga telefon apparatlari 6,7 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanib 2020-yilning sentyabr oyiga kelib, 282 tani tashkil etgan, bu ko‘rsatkich ortishda davom etmoqda. Shu bilan bir qatorda, ilg‘or texnologiyalarga yo‘naltirilgan innovatsion yechimlar mamlakatimiz siyosatini belgilab bermoqda va bugungi kunda har bir O‘zbekiston fuqarosining xonadoniga optik tolali aloqa liniyalarini tortish jarayoni davom etmoqda. Jamoat joylari, mehmonxonalar, aeroportlar, vokzallarda zamonaviy internet (Wi-Fi) texnologiyalari joriy etilgan, bu esa O‘zbekistonga sayyohlar oqimining ko‘payishiga ham ta’sir etishi shubhasiz.

Adabiyotlar:

1. Ўзбектелеком АК, 28.10.2021 йилдаги 27. 04. 44/4679 сонли жавоб хати. – 5.б.

2. *Эшмуродов А., Зайнутдинова Н., Нуруллаева М., Султанов Й*. Рақамли коммутация тизимлари. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. – 420 б.

3. *Glenn E. Curtis* (ed.). Kazakstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan country studies. – Washiton: Libraryof Congress, 1997. – 668 p.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 1 августдаги Ўзбекистон Республикаси “Телекоммуникация тармоғини 2010 йилгача бўлган даврда реконструкция қилиш ва ривожлантириш миллий дастури тўғрисида”ги 307-қарори. [Интернет манба]. URL: http://old.lex.uz/docs/526611 (Мурожаат этилган сана: 16.04.2023)

5. Ўзбекистон Ресрубликаси Миллий архиви (ЎзР МА), М-37 фонд, 1-рўйхат, 801-иш, 74-75 варақ.

6. Алоқа ахборотномаси. – Тошкент, 2007. – № 1. – Б.26.

7. ЎзР. МА, М-37 фонд, 1-рўйхат, 801-иш, 71-варақ.

8. *Камолитдинов Р.З.* Симли алоқа қурилмаларига хизмат кўрсатиш. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – 112 б.

9. *Абдуллаев Ф.* Ахборот тизимларнинг кенг майдони // Алоқа дунёси, 2001. – № 1(2). – Б. 3–4.

10. *Бобожонов Б.* Асрга тенг йиллар. – Тошкент: Истиқлол, 2001. – 192 б.

11. ЎзР. МА, М-60 фонд, 1-рўйхат, 157-иш, 127-варақ.

12. *Юнусов, Н., Исаев Р., Миразимова, Г.Х.* Оптик алоқа асослари. –Тошкент: Чўлпон, 2014. – 138 б.

THE HISTORY OF THE TELECOMMUNICATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN IN 1991-2005

Izzat S. Yusupov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 82-88.

[1]Tashkent Medical Academy Urganch Branch, Khorezm, 220100, str. Al-Khorazmi, 28 (Uzbekistan.) E-mail: ttaurgfil@umail.uz

Keywords: *Uzbektelecom, telephone, telegraph, "Intelsat", local telecom, Uztelecom.*

In the article, the main directions of development of the telecommunication network in our country in 1991-2005 are defined. In addition, the reforms carried out in the system regarding the establishment of a digital main transport network, increasing the level of digitization, development of the local telephone network, and the introduction of new service types are shown. Also, the works carried out in cooperation with developed countries such as Japan, South Korea, and Turkey are shown. In the independence years, outdated analog telephone connections were replaced by modern digital switching systems and digital automatic long-distance telephone exchanges in all regions of our country.

Studying the history of the formation and development of telecommunications in Uzbekistan serves to expand knowledge, enrich experience and educate the population in the spirit of patriotism. It can speed up communication between the peoples of countries and regions, deepen mutual understanding, solve global problems without conflict, enrich with new knowledge, strengthen mutual understanding, friendship and cooperation.

As a result of a number of decisions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan and the Cabinet of Ministers for the development of the sector during the past period, the quality of communication services, the development of digital networks and services, and the possibility of modern high-speed data transfer were created.

At the same time, the beginning of the process of privatization and privatization of the telecommunications sector created the ground for major changes in the system The creation of joint-stock company "Uzbektelecom" and regional administrations in the provinces gave further impetus to the development of the communication sector in the republic. Great attention was paid to the introduction of new techniques and technologies, bringing in investments, training of qualified specialists to the development of the industry.

Telecommunication is one of the most dynamic and profitable sectors of the world economy. The level of telephone coverage is an integral indicator of the level of communication development of any country.

In 1995, the population of the republic had 6.7 telephones per 100 people, and by September 2020, there were 282 telephones, and this figure continues to increase. At the same time, innovative solutions focused on advanced technologies determine the policy of our country, and today the process of laying optical fiber communication lines to the home of every citizen of Uzbekistan continues. Modern Internet (Wi-Fi) technologies have been introduced in public places, hotels, airports, railway stations, and this has served to increase the flow of tourists to Uzbekistan.

References:

1. (2021) O'zbektelekom AK, 28.10.2021-yildagi 27.04. 44 /4679 sonli javob xati [Uzbektelecom JSC, response letter (28.10.2021) No. 27.04. 4 /4679. P. 5].

2. Eshmurodov, A., Zaynutdinova, N., Nurullayeva, M., Sultanov, Y. (2011). Raqamli kommutatsiya tizimlari [Digital communication systems]. Tashkent: Fan va texnologiyalar.

3. Curtis, G.E. (ed.) (1997). Kazakstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan country studies. Washiton: Libraryof Congress.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 1-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi “Telekommunikatsiya tarmog‘ini 2010-yilgacha bo‘lgan davrda rekonstruksiya qilish va rivojlantirish milliy dastur to‘g‘risida”gi 307-qarori [Resolution No. 307 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (August 1, 1995). On the national program for the reconstruction and development of the telecommunications network until 2010]. [Online]. URL: http://old.lex.uz/docs/526611 (Date of Access: 16.04.2023)

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi [National Archive Republic of Uzbekistan], fund M-37, list 1, case 801, Pp. 74-75.

6. (2007) Aloqa axborotnomasi [Communication newsletter]. Tashkent. No 1. P. 26.

7. NA of Uz., fund M-37, list 1, case 801, P. 71.

8. Kamolitdinov, R.Z. (2007). Simli aloqa qurilmalarigi xizmat ko‘rsatish [Service of wired communication devices]. Tashkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

9. Abdullayev, F. (2001). Axborot tizimlarning keng maydoni [Wide field of information systems]. *Aloqa dunyosi*. No 1(2). Pp. 3-4.

10. Bobojonov, B. (2001). Asrga teng yillar [Years equal to a century]. Tashkent: Istiqlol.

11. NA of Uz., fund M-60, list 1, case 157, P. 127.

12. Yunusov, N., Isayev, R., Mirazimova, G.Kh. (2014) *Optik aloqa asoslari* [Fundamentals of optical communication]. Tashkent: Cho‘lpon.

Muallif haqida ma’lumot:

YUSUPOV Izzat Sultonovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktorning birinchi o‘rinbosari. E-mail: izzat.sultanovich@mail.ru